**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAMRAYEVA GULCHEXRA IBRAXIMOVNA

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING GAPIRISH KO‘NIKMASINI MAVZUGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI (ingliz tili misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

https://buxdu.uz

UO‘K: 373.3.016:811.161.1:004

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора по педагогическим наукам педагогике (PhD)

Contents of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical science

Xamrayeva Gulchexra Ibraximovna
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuv asosida shakllantirish metodikasi (ingliz tili misolida)……...…….. 5

Хамраева Гулчехра Ибрахимовна
Методика формирования навыков говорения учащихся начальных классов на основе тематического подхода (на примере английского языка)…….....25

Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna
Methodology for developing speaking skills of primary school children on the basis of the theme-based approach (on the example of English)……..49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……...54

https://buxdu.uz

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAMRAYEVA GULCHEXRA IBRAXIMOVNA

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING GAPIRISH KO‘NIKMASINI MAVZUGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI (ingliz tili misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

https://buxdu.uz

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5220 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ataboyev Nozimjon Bobojon o‘g‘li** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Dilova Nargiza G‘aybullayevna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Kushiyeva Nodira Habibjonovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.Ped.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “5” iyun soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (01-675 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “23” may kuni tarqatildi.
(2025-yil “23” may dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi).

G.V. Izbullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Y.B. Ro‘ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

https://buxdu.uz

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuv omili sifatida xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini, xususan, boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va intilishning oshib borayotganini e’tirof etish mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatishda muloqot madaniyatini shakllantirish, shuningdek, umumta’limda belgilangan o‘quv predmetlarini o‘rganilayotgan chet tili bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlarida xorijiy tillarni o‘qitishning mazmun va mohiyatiga mos to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlashda zamonaviy pedagogika ustuvor yo‘nalishlari rivojini belgilovchi vazifalarning bajarilishidagi muammolarga yechim topish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo lingvodidaktika ilmida global lingva-franka maqomidagi ingliz tilini o‘qitish metodikasiga oid o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, integratsion yondashishni rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar ko‘lami ortmoqda. Xususan, bugungi kun chet tillarini o‘qitish, o‘rganish va baholashga doir xalqaro me’yorlar (CEFR) bo‘yicha chet tilini bosqichma-bosqich A1 dan C1 darajagacha egallash jarayonida – yoshga oid yondashuvning ahamiyatini anglagan holda, boshlang‘ich ta’lim bo‘g‘inida ingliz tilini zamonaviy yondashuvlar, metod va texnologiyalar asosida o‘qitish, ayniqsa, STEAM (Science, Technology, Education, Art, Mathematics), CLIL (Content and Language Integrated Learning), CBI (Content-based Instruction), PBL (Project-based Learning), TBL (Task-based Learning) hamda Topic/Theme-based Approach kabilar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni boshlang‘ich sinfdan kommunikativ maqsadlarda o‘qitilishi jahon tajribasiga asoslangan holda o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira va diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta’lim sharoitini inobatga olish muhimki, bunda sifat va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarurati mavjud. Zero, “…kichik yoshdagi bolalar uchun sifatli ta’lim berish muammolarini global darajada samarali hal qilish, bu masalalarga birgalikda tezkor yechimlar va tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish” juda dolzarb[1]. Shu jihatdan, chet tili o‘qituvchilari faoliyatini isloh qilish, chet tili ta’limida dunyo tajribasidan foydalanishda, qo‘shma ta’lim dasturlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish, xorijiy tilni o‘rgatishni ta’limning quyi bo‘g‘ini mazmuniga mos ravishda modernizatsiyalashtirish ustuvor ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent, 15.11.2022. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/5696 (Murojaat sanasi: 15.02.2025)

https://buxdu.uz

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston –2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son farmonlari, 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 34-son qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bilan G.X.Boqiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, L.T.Axmedova, M.T.Irisqulov, F.M.Rashidova kabi olimlar shug‘ullanishgan[2], shuningdek, F.Sh.Alimov, Sh.H.Akbarova, U.A.Masharipova, G.S.Sabirova, G‘.Sh.Tajibayev, X.U.Saydullayeva kabi yosh olimlar[3]ning tadqiqotlarida ingliz tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolariga oid nazariy mulohazalar o‘z ifodasini topgan. Chet tillarini boshlang‘ich sinflarda o‘rganish va o‘rgatishning pedagogik va psixologik asoslari J.Piaje, L.S.Vigotskiy, I.N.Vereshagina, L.Kameron, S.Xalivel, P.Driscoll, D.Frost, G.Rogova kabilarning metodika sohasidagi ishlarida tadqiq etilgan[4]. Shuningdek, ingliz tili darslarida

---

[2] Бакиева Г., Махкамова Г., Кулдошев А. English 3. – Ташкент, 2007.; Jalolov J., Makhkamova G., Ashurov Sh. English Language Teaching Methodology, Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 338 p.; Ахмедова Л.Т. Личностно-ориентированный подход к современному обучению и воспитанию студентов высших учебных заведений // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2016. – № 4 (12). – С. 256-260.; Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни ўрганиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим. – Т., 2016. – № 6. – Б. 70-71.; Ирисқулов М.Т. Чет тилларни ўқитишда CEFR ўрни // Узлуксиз таълим. – Т., 2016. – № 1. – Б. 77-83.

[3] Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 42 б.; Акбарова Ш.Ҳ. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тили лексикасини ўргатиш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 53 б.; Машарипова У.А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 45 б.; Сабирова Г.С. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларига инглиз тили олмошларини ахборот технологиялари асосида ўргатиш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф.–Тошкент, 2017. – 41 б.; Тажибаев Г.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тили ўқитишда коммуникатив ёндашув: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 45 б.; Saydullayeva X. U. Konchilik yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi: Ped.fan.bo‘yicha fals. dokt.(PhD)…. diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 63 b.

[4] Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.: Римис, 2008.; Cameron L. Teaching Languages to Young Learners.– Cambridge: Cambridge University Press, 2005.; Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L. – N.Y.: Routledge, 2005.; Halliwell S. Teaching English in the Primary classroom. – NY.: Longman, 2003.; Верещагина И.Н., Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в общеобразовательных учреждениях. – М.: Просвещение, 2000.; Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.; Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 2000.

https://buxdu.uz

mavzuga asoslangan yondashuvning tatbiq etilishi J.Richards va T.Rodgers, S.Strayker, T.Gordon, L.Kameron va B.Leaver hamda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish muammosi AQSHning Janubiy Kaliforniya universiteti professori, chet tillarni o‘qitish bo‘yicha nazariyotchi olim Stefan Krashen tomonidan ham o‘rganilgan[5].

Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi faolligiga yoki ta’lim vositalarining mavjudligiga, balki ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, shuningdek, fanlararo integratsiyaning va innovatsion texnologiyalarning mohirona qo‘llanilishiga ham bog‘liq. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha N.X.Azizxadjayeva, N.Avliyoqulov, Sh.Olimov, R.H.Jo‘rayev, A.Zunnunov, R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev kabi bir qator soha mutaxassislari samarali izlanishlar olib bormoqdalar[6], shuningdek, boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari bo‘yicha B.R.Adizov, A.R.Hamroyev, Sh.Nurullayeva, X.S.Bakiyeva kabi olimlarning tadqiqot ishlarini alohida ta’kidlash lozim[7].

Garchand mustaqillik yillari boshidan boshlang‘ich sinflarda xorijiy tilni o‘qitish masalasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, ta’lim o‘zbek tilida tashkil etiladigan boshlang‘ich sinflarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda mavzuga asoslangan yondashuv metodikasi bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishi keng ko‘lamda o‘rganilmagan hamda ta’lim jarayonida foydalanishga doir pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejalariga muvofiq “OT-F1-002-Yoshlarda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tili darslarida gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuv asosida

---

[5] Gordon T. Teaching young children a second language. – Greenwood Publishing Gr., 2007.; Krashen**,** Stephen D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. **–** Prentice-Hall International, 1987.

[6] Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Buxoro: Matbaa, 2001. – 160 b.; Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, Nizomiy, 2003. – 177 b.; Олимов Ш.Ш. Шахсга йўналтирилган таълим асосида ўқув-тарбия жараёнини ривожлантириш истиқболлари //“Узлуксиз таълим тизимида ҳамкорлик педагогикаси” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2014.; Jo‘rayev R.H., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Sharq, 2005.; Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

[7] Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед. фан. д-ри … дисс. – Т., 2003. – 280 б.; Ҳамроев А.Р. Бошланғич синф она тили таълимини ижодий ташкил этиш: Пед. фан. ном. … дисс. –Т.: 2005. – 164 б.; Нуруллаева Ш. Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш: Пед. фан. ном. … дисс. –Т., 2005. – 152 б.; Бакиева Х.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) … дисс. автореф. – Самарқанд, 2020.

https://buxdu.uz

shakllantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda lingvodidaktik, metodologik, psixologik xususiyatlar asosida o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirish tamoyillarini tahlil qilish;

ingliz tilini o‘qitishda mavzuga asoslangan yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali usullari negizida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini takomillashtirish;

tadqiq etilayotgan mavzu doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mavjud o‘quv dasturi va 1-4-sinflar uchun yaratilgan “Guess What!” darsligi mazmunini 4K modeli asosida tahlil qilish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha didaktik ta’minotni ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o‘tkazish va samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuv asosida shakllantirish jarayoni olingan va Buxoro, Navoiy va Qarshi viloyatlari umumta’lim maktablari boshlang‘ich 3-sinflaridan 329 nafar o‘quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuv asosida shakllantirishning shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish, sohaviy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, og‘zaki va yozma so‘rovlar o‘tkazish, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlildan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning avtoritar shaklidagi an’anaviy hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim tafovutlari, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining tutgan o‘rni, vazifasi, ta’lim berish va o‘rganish usullari, vositalari hamda shakllari negizida mavzuga asoslangan yondashuvning konseptual mohiyati asoslangan hamda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari ishlab chiqilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda orfoepik, leksik, grammatik farqlilik bilan bog‘liq lingvistik va milliy-madaniy xoslikka oid ekstralingvistik qiyinchiliklar hamda yoshga oid pedagogik-psixologik xususiyatlar asosida o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirish tamoyillari tahlil qilingan;

mavzuga asoslangan yondashuv doirasida boshlang‘ich ta’limda ingliz tili fani o‘quv dasturlari va darsliklaridagi gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi takomillashtirilgan;

https://buxdu.uz

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan, fanlararo bog‘liqlikda ishlab chiqilgan mavzularni umumlashtiruvchi shaxsga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyatga jalb etishning lingvodidaktik imkoniyatlari va mavzuga asoslangan yondashuv asosida didaktik ta’minot tizimining ustuvor ahamiyati 1-4-sinflar uchun yaratilgan “Guess What!” darsligi misolida uslubiy dalillangan hamda darslik mazmuni 4K modeli asosida tahlil qilingan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini o‘zaro universal kontent va til integratsiyasi (CLIL) hamda kontentga asoslangan ko‘rsatma (CBI) tarkibidagi mavzuga asoslangan yondashuv orqali shakllantirish modelining samaradorligi matematik-statistik tahlillarga ko‘ra isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari til bilish kompetentligini rivojlantirishning kengaytirilgan didaktik imkoniyatlari negizida “Methodology of teaching English to young learners” nomli elektron o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuvga ko‘ra shakllantirishda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan va mazkur kompetensiyalar egallanishiga mo‘ljallangan mashqlar bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishning o‘quv-uslubiy ta’minoti (DTS, o‘quv dasturi, taqvimiy rejalari, darslik (Guess What! Students’ book) va o‘quvchi mashq kitobi (Workbook)ning 4K modeli asosida tahliliy o‘rganilishi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, erishilgan natijalar samaradorligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida muloqot qila olish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, ta’lim jarayoniga tizimli yondashuv, tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy-metodik ko‘rsatmalar va o‘quv-uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang‘ich ta’limda ingliz tili metodikasining ilmiy asoslarini tayyorlash, boshlang‘ich chet til ta’limi bo‘yicha o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmua va darsliklarning yangi avlodini yaratish, ushbu mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borish, shuningdek, umumta’lim maktablari negizidagi ingliz tili o‘qituvchilari uchun “Mahorat maktab”larida seminar-treninglar tashkil etish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini va muloqot

https://buxdu.uz

qila olish kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

mavzuga asoslangan yondashuvning konseptual mohiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning avtoritar shaklidagi an’anaviy hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim tafovutlari, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining tutgan o‘rni, vazifasi, ta’lim berish va o‘rganish usullari, vositalari hamda shakllari negizida asoslanganligi bilan bog‘liq asosiy natijalari Qarshi shahridagi 4-maktabda (Qashqadaryo viloyati MMTBning 2024-yil 26-yanvardagi 02/6-5-407-son dalolatnomasi), Buxoro shahridagi 5-, 6-, 31-maktablarda (Buxoro viloyati MMTBning 2024-yil 6-fevraldagi 01/457-son dalolatnoma), Navoiy shahridagi 7-, 17-maktablarda (Navoiy viloyati MMTBning 2024-yil 6-martdagi 01/03-01/8-242-son dalolatnomasi) amaliyotda joriy etilgan, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmalarini shakllantiradigan usullar samaradorligini oshirishga qaratilgan metodika sinovdan o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tomonidan 2025-yil 16-aprelda berilgan 01/11-6-281-son ma’lumotnoma). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuvga ko‘ra shakllantirish amaliyoti an’anaviy darslarga qaraganda samaradorligi isbotlangan va tadqiqot yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

orfoepik, leksik, grammatik farqlilik bilan bog‘liq lingvistik va milliy-madaniy xoslikka oid ekstralingvistik qiyinchiliklar hamda yoshga oid pedagogik-psixologik xususiyatlarga aloqador amaliy takliflardan Buxoro davlat universitetida 2018-2022-yillarda bajarilgan “OT-F1-002-Yoshlarda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 27-martdagi 01-04/1963-son ma’lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyatga jalb etishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish g‘oyalari asosida yosh avlodni milliy g‘oya va mafkuraviy immuniteti shakllangan barkamol inson, yuksak axloq sohibi etib tarbiyalashga xizmat qilgan;

mavzuga asoslangan yondashuv doirasida boshlang‘ich ta’limda ingliz tili fani o‘quv dasturlari va darsliklaridagi gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar 60112600 – Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Methodology of teaching English to young learners” nomli elektron o‘quv qo‘llanma (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 2-aprelda berilgan DGU 35694-raqamli “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida”gi guvohnoma), 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) va 60230112 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug‘iga asosan berilgan 166-293 raqamli nashr

https://buxdu.uz

guvohnomasi), 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz) magistratura mutaxassisligi II bosqich talabalari uchun “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” nomli darslik (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug‘iga asosan berilgan 232-530 raqamli nashr guvohnomasi) yaratishda foydalanilgan. Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishning o‘quv-usuliy ta’minotini takomillashtirishga erishilgan;

1-4-sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan, fanlararo bog‘liqlikda ishlab chiqilgan mavzularni umumlashtiruvchi shaxsga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyatga jalb etishning lingvodidaktik imkoniyatlari mavzuga asoslangan yondashuv asosida didaktik ta’minot tizimi ustuvor ahamiyati “Guess What!” darsligi misolida metodik dalillanganligi bilan bog‘liq tavsiyalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 26-sentabrdagi 611/02-son ma’lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuv asosida shakllantirish samaradorligi, til va fan integratsiyasining o‘qitish jarayonida ustuvorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta elektron o‘quv qo‘llanma hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (shu jumladan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda), shuningdek,Web of Science bazasida 2 ta maqolasi (hammualliflikda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

https://buxdu.uz

Dissertatsiyaning “**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishning lingvopsixologik, didaktik va metodologik tamoyillari, ularning ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari ahamiyati bayon qilingan.

Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimi amal qiladi. Maktabga ilk qadam qo‘ygan bolalar o‘z yosh xususiyatlari hamda tafakkur va ruhiy taraqqiyot darajalariga muvofiq keladigan ta’limiy faoliyatga kirishadilar. Bu davrda o‘qish, o‘rganishga asoslangan faoliyat yetakchi mavqega ega bo‘ladi va bu faoliyatning shakllanishida har bir o‘quv fani, jumladan, ingliz tili fani bo‘yicha ham bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi, tafakkuri jadal rivojlanadi. Bugungi davr bolalari qobiliyat, zehn-zakovat, tirishqoqlik borasida ustunlik qilishlari ma’lum. Internet asri bolalari juda erta yoshdan intellektual imkoniyatlarini to‘liq ishga solishga intilishadi va o‘zlariga nisbatan kuchli e’tibor talab qilishadi, atrofdagi olamni tezroq anglashga urinishadi. Kichik maktab yoshli hozirgi davr bolalari o‘zlarining giperfaolligi va o‘ta ta’sirchanliklari bilan o‘tgan asrdagi tengdoshlaridan farq qilishadi. Bugungi davr bolalarida uzoq muddatli xotira qisqa muddatli xotiraga nisbatan mustahkamroq bo‘lishi kuzatilmoqda. Zamonaviy metodik adabiyotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nimani qila olmasliklariga emas, balki nima qila olishlari mumkinligiga e’tibor qaratish tavsiya etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganishdagi asosiy ustunligi ular mazkur predmetni o‘rganishda ikkilanmaydilar, ular ingliz tilini muvaffaqiyatli o‘rganish uchun yaxshi shakllangan instinktlar, til tajribalari va o‘zlariga xos xarakterli xususiyatlarga ega kichik shaxslardir.

Ta’lim-tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo‘lishi mumkin. Bu qonuniyatlar ta’limning umumdidaktik tamoyili deyiladi. *Tamoyil (prinsip)* termini *asos bo‘ladigan yo‘l-yo‘riq, qonun-qoida* degan ma’noni ifodalaydi. Y.I.Passovning fikricha[8], ***tamoyil*** *– o‘qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir*. Konsepsiya va tamoyillarning to‘g‘ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi. Shuningdek, 6-7 yoshdagi bolalar ma’lumotlar ma’nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Zero, ingliz tilini o‘rganayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til o‘rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda, chet tilini o‘rgatishning dastlabki qadamlariyoq bolani charchatishi va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini susaytirishi (ba’zan mutlaqo sundirishi) mumkin. Chunki boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatish nozik, shu bilan birga, mas’uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

[8] Пассов Е.И. Цели обучения иностранному языку: учебное пособие. – Воронеж: Интерлингва, 2002.

https://buxdu.uz

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishning psixologik asoslari *I.A.Zimnyaya, D.M.Singlton, L.Ryan, Z.Dorney, P.M.Laytboun, N.Spada, A.P.Sinelnikov, M.Villiams, R.L.Bedn*; pedagogik asoslari *V.A.Skot, L.X.Yetrberg, S.Xallivel, K.Grant, J.Mun, S.Xorner, V.Rif, A.Pinter, D.Veil, A.Faunteyn*; metodologik asoslari *N.D.Galskova, Z.N.Nikitenko, L.Kameron, K.T.Linz, D.Nyunen, N.A.Gorlova* kabi olimlar tomonidan nashr ettirilgan adabiyotlarda atroflicha yoritilgan[9].

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning til o‘rganish individual layoqatlari (*individual language learning apptitude*) va individual usullari (*learning styles*) ham hisobga olinadi, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganish usullari individning yangi axborot va malakalarni hazm qilish, qayta ishlash va xotirada saqlashning tabiiy odat tusiga kirgan va afzal ko‘radigan yo‘llari degan ma’noni ifodalaydi. Metodik adabiyotlarda ingliz tilini o‘rganish usullari turlicha nomlanadi. Masalan, MakKarti til o‘rganish usullarini *innovative, analytic, sensitive, dinamic* deb nomlagan bo‘lsa, D.Nyunan *cognitive, sensory, personality* kabi kengroq tushunchalarni ifodalovchi atamalardan foydalangan. G. Tajibayev o‘z ilmiy ishida yuqoridagi atamalarga berilgan izohlarni umumiylashtirib, ingliz tilini o‘rganuvchilarni *innovatsion o‘rganuvchilar (innovative learners), tahlilchi o‘rganuvchilar (analytic learners), kinesetik o‘rganuvchilar(kinesthetic (tactile, auditory, visual) learners)* va *dinamik o‘rganuvchilar (dynamic (left/right brain) learners)*deb sharhlagan[10]. Yuqoridagi metodist olimlar tahlilidan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda ularning tilni o‘rganish usullarini inobatga olgan holda tashkil etish samarali natija ko‘rsatishi isbotlandi.

Gapirish *– biror fikrni izoh etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va orfoepik me’yorlarni qo‘llashdan* iborat, bunda “Avval o‘yla, keyin so‘yla” deyilishiga e’tibor qaratsak, “o‘yla” qismida fikr paydo bo‘lishi, “so‘yla”da esa, uni nutq harakat sezgisi (analizatori orqali “bayon etish”) tomonlari nazarda tutiladi. Birinchisi – *til materialining qo‘llanilishi, ular leksik, grammatik, talaffuz ko‘nikmalari* deyiladi; ikkinchisi – *fikr aytilishi, gapirish malakasi* nomi bilan yuritiladi.

S.Krashen mulohazalariga ko‘ra[11], dastavval o‘rganuvchida muayyan tilni o‘zlashtirishga ehtiyoj bo‘lishi kerak yoki muhit taqozosi, bunday sharoitda til o‘rganuvchining majburiyat yuzasidan tabiiy yo‘l bilan axborot almashinuviga bo‘lgan shaxsiy ehtiyoji tilda gapirishga undaydi. Zotan, til o‘rganuvchi yosh bola o‘z ona tilini qanday o‘rgansa, xuddi shu yo‘l bilan ikkinchi tilni o‘rganadi va chet tilida gapirishga harakat qiladi, ya’ni ota-onasi va yaqinlari bilan axborot almashinishga bo‘lgan ehtiyoj uni muloqotga yo‘naltiradi. Tilni shu usulda o‘rganish orqali gapirish ko‘nikmasi me’yorda tabiiy rivojlanadi. Og‘zaki nutq

[9] Тажибаев Г. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тил ўқитишда коммуникатив ёндашув. Монография. – Наманган, 2020. – 204 б.

[10] Тажибаев Г. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тил ўқитишда коммуникатив ёндашув. Монография. – Наманган, 2020. – 204 б.

[11] Krashen, Stephen D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Prentice-Hall International, 1987.

https://buxdu.uz

ko‘nikmasining rivojlanishi haqida Krashen nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganuvchi tilni faqat qonun-qoidalar asosida o‘rganishi o‘zlashtirayotgan chet tilida gapirayotganda ta’lim oluvchining ongi ifodalanayotgan fikrni grammatik, fonetik o‘rganilgan qoidalar asosida tuzilayotganligini nazorat qiladi, ba’zi o‘rganuvchilarda miyaning bunday boshqaruvi chet tilida gapirishga uyalish, ikkilanish hissini beradi. Olimning fikricha, ong nazoratini chegaralash, ya’ni xato qilishdan qo‘rqmaslik – chet tilida gapirish ko‘nikmasini yaxshiroq rivojlanishiga olib keladi. Demak, ongning tilga ko‘chayotgan fikri ustidan nazoratini chegaralash, tilga ko‘chgan fikr miyada tahlil qilinganda, xato-kamchiliklar aniqlansa-da, fikrni ifodalashdan uyalmaslik lozim, natijada vaqt o‘tgan sari kamchiliklar o‘z-o‘zidan barham topib boradi.

Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda o‘rganilayotgan tilning tabiiy oziga xosliklari va ona tili bilan bir-biriga yaqin yoki aksincha boshqa-boshqa oilalarga mansubligi ham muhim rol o‘ynaydi. Tajribalar asosida aytish mumkinki, ona tilisi o‘zbek tili bo‘lgan til o‘rganuvchilarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini hosil qilishda birmuncha qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. S.Krashen o‘z gipotezasida miyani zo‘riqtirish haqida gapiradi, bunda o‘quvchi bilganlarini faqat takrorlayverishi emas, balki o‘rganuvchi uchun yangi bilimlarni egallashi, so‘zlarning tarjimasini emas, aksincha, so‘zlarning o‘rganilayotgan tildagi izohini bilish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, ingliz tilida gapirishni o‘rganishda stress (ruhiy zo‘riqish)dan xoli vaziyatlarning ahamiyati muhim. Stress qancha past bo‘lsa, o‘rganish samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. O‘rganuvchilarning o‘zlariga xos shaxsiy o‘rganish usullaridan kelib chiqadigan kuchli va kuchsiz jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Demak,

o‘quvchining o‘rganilayotgan tildan foydalanib eng sodda usulda kommunikatsiya qilish fazilatini shakllantirish;

interaksiya va kommunikatsiyaning sodir bo‘lishini ta’minlovchi mashqlarga alohida e’tibor qaratish;

nutq vaziyatini qo‘llash tamoyiliga muvofiq turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘rganilayotgan tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishni o‘rgatish maqsadida mashg‘ulotlarda harakatli, syujetli, rolli, dramatik, imitatsion (taqlidiy), muloqotga yo‘naltirilgan, proyektli va didaktik o‘yinlarni tashkil etish;

dialoglarga yod olinishi zarur bo‘lgan til materiali sifatida emas, balki kommunikativ maqsadlarda murojaat etish;

matn mazmunini anglab yetishga diqqat qaratish;

til materialini real nutq vaziyatlaridagi kontekstlarda taqdim etish;

takrorlash (drilling) mashqlariga vaqt ajratish;

o‘rganuvchilarning yoshi, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda zaruriy texnik vositalardan o‘rinli foydalanish;

maqbul vaziyatlarda ona tilidan va agar o‘quvchiga foydali deb hisoblansa, tarjimadan foydalanishni taqiqlamaslik;

ichki motivatsiyani til orqali sodir bo‘layotgan kommunikatsiya obyektiga qiziqtirish natijasida vujudga keltirish kabi tavsiyalarga amal qilinishi ingliz tilida

https://buxdu.uz

gapirishni o‘rganish hamda o‘rgatishda sifat va samaradorlikni ta’minlashi mumkin.

Ma’lumki, *an’anaviy o‘qitish* tashkiliy jihatdan XVII asrda Y.A.Komenskiy tomonidan shakllangan sinf-dars tizimiga bo‘ysunadi va hozir ham ta’limning bu shakli jahon maktablarida ustuvorlik kasb etadi. An’anaviy dars muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. Uning o‘ziga xos atributlari:

bir xil yoshdagi bolalar sinfini tashkil etadi, butun sinf dars jadvaliga binoan, yagona yillik reja va dastur bo‘yicha ishlaydi;

yagona mashg‘ulot turi – dars hisoblanadi;

dars o‘quv predmeti mavzusiga bag‘ishlanganligi sababli sinf o‘quvchilarining barchasi bir xil material bilan ish ko‘radilar;

o‘qituvchi darsda o‘quvchilar faoliyatini to‘liq boshqaradi;

o‘quvchining kitobdan foydalanishi, asosan, uy topshiriqlarini bajarishda amalga oshiriladi.

An’anaviy ta’lim hamisha ham belgilangan talablarga javob bermaydiki, bu o‘quv jarayonida noan’anaviy ta’lim metodlarini qo‘llash ehtiyojlarini yuzaga keltiradi. Bu kamchiliklar quyidagilar:

o‘quvchining doimiy nazoratda bo‘lishi, odatda, ularga motivatsiya bermaydi, ya’ni o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha xatti-harakatlar qat’iy talab asosida sodir bo‘lishi o‘quvchida ijodiy tashabbuskorlik uyg‘otmaydi;

o‘quvchilar o‘qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydilar. Chunki har bir dars bosqichi muayyan qoidalarga asoslanganligi va bu bosqichlar o‘qituvchi yakka hokimligida sodir bo‘layotganligi muloqotning turli shakllarini taqozo etmaydi;

mustaqil o‘rganish va mustaqil qarorlar qabul qilish uchun zarur shart-sharoit yaratilmaydi, o‘quvchini ijodiy fikrlashga undovchi kuchning sezilmasligi, tabiiyki, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga to‘sqinlik qiladi.

Zamonaviy, *noan’anaviy ta’lim* – bola shaxsiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, bolaning aqliy, emotsional, jismoniy, axloqiy va ma’naviy o‘sishini hisobga olgan holda uning qiziqishlari, aqliy, jismoniy, biologik imkoniyatlarini nazarda tutuvchi, ta’limga insonparvarlik yondashuvi tamoyillariga asoslangan ta’lim-tarbiya texnologiyasidir. Bu texnologiya bola shaxsiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim sifatida:

hayotiy ko‘nikmalarni nazariy bilimlar bilan teng ravishda rivojlantirish muhim va zarurligini e’tirof etadi;

har bir bolaning ichki dunyosi noyobligini, hayotiy tajribasini e’tiborga oladi;

o‘quvchilarning anglash va bilimlarni egallashdagi faolligini kuchaytiradi;

integratsiyalashgan o‘quv rejasi, o‘quv predmetlarining o‘zaro uzviylashganligiga e’tibor beriladi;

hamkorlik (collaboration) va ko‘mak (scaffolding) qo‘llab quvvatlanadi, ya’ni bola bilan hamkorlik munosabatini shakllantiradi (1-jadvalga qarang):

https://buxdu.uz

1-jadval

Chet tili ta’limining an’anaviy va zamonaviy metodlari

An’anaviy – o‘qituvchi markazda bo‘lgan yondashuvga asoslangan ta’lim	*Zamonaviy – bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim*
Konseptual asoslar	
Ta’lim oluvchiga yondashish bo‘yicha nazoratli usul, ta’lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini hamisha ham e’tiborga olavermaydigan, qat’iy tashkil etilgan bo‘ysunish asosidagi *avtoritar* ta’lim. *O‘rganish* – eslab qolish vazifasi, dars berish esa, asosiy faoliyat.	Ta’lim oluvchi shaxs – ta’lim jarayonining markaziy egasi. Tabaqalashtirish va individuallashtirish, ta’lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va fanni o‘zlashtirilishini hisobga olishga yo’naltirilgan tizimli, harakatli yondashish. *O‘rganish* – ta’lim oluvchining egallagan bilimlarini qo‘llay olishlari.
Ta’lim oluvchining tutgan o‘rni va vazifasi	
Ta’lim oluvchi – ta’lim beruvchi ta’siridagi bo‘ysunuvchi obyekt. Bilim – birdan bir maqsad. Xato – jazolanadi.	Mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta’lim jarayonining teng huquqli subyekti. Bilim – shaxsiy muammolarni hal etish vositasi. Xatolar – o‘rganish jarayoni.
Ta’lim beruvchining tutgan o‘rni va vazifasi	
Ta’lim beruvchi – yagona tashabbuskor, bilish subyektini nazorat qiluvchi shaxs.	Ta’lim beruvchi – mustaqil bilish faoliyati tashkilotchisi, maslahatchisi va yordamchisi.
Ta’lim berish va o‘rganish usullari	
Tayyor bilimlarni og‘zaki bayon qilish orqali bildirish. Oddiydan umumiylikka, induktiv mantiqqa, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash bayoniga asoslangan, namuna bo‘yicha ta’lim berish.	Muammolarni izlash, tahlil qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan tezkor va interfaol ta’lim berish usullari.
Ta’lim berish vositalari	
Ta’lim beruvchi nutqi, ko‘rgazmali va texnik vositalar. Akademizmga tayangan o‘quv adabiyotlari, asosan, uy vazifasi uchun qo‘llaniladi.	An’anaviy vositalar bilan bir qatorda – axborotli texnologiyalar. O‘quv materiallari ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash uchun ishlatiladi.
Ta’lim berishni tashkillashtirish shakllari	
Ommaviy ta’lim berish: ta’lim oluvchilar bir-birlari bilan ajralgan munosabatda; mustaqillikning yetishmasligi. Ta’lim beruvchi faqat pedagogik faoliyatni rejalashtiradi.	Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchi bilan ta’lim jarayonini o‘quv dialogik tarzda tuzadi; ularda mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun o‘zi mustaqil ta’lim olishga tayyorgarlik, o‘z-o‘zini bilishi, o‘z-o‘zini amalga oshirish va o‘z-o‘zini taqdim eta olish qobiliyatlari uchun sharoit yaratadi.

Xulosa shuki, bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim Konfutsiy ta’biri bilan aytganda: *“O‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda rivojlanadi”*gan yondashuv hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini mavzuga asoslangan yondashuvga asosida shakllantirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida ingliz tilida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gapirish kompetensiyasini rivojlantirish didaktik shart-sharoitlari,

https://buxdu.uz

zamonaviy shakl, metod va vositalari, shuningdek, gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda boshlang‘ich sinflar uchun yaratilgan ingliz tili darsliklari 4K modeli tamoyillari asosida ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Mavzuga asoslangan yondashuv, ya’ni mavzuga asoslangan o‘qitish mazmuniga ko‘ra bir-biriga bog‘langan turli faoliyatni o‘z ichiga olib, ma’lum bir mavzu atrofida til o‘rganishni markazlashtiradi va tilni kommunikativ, interaktiv hamda integrativ tarzda o‘qitish bilan uzviy aloqador bo‘ladi. Mavzuga asoslangan ta’lim bir nechta o‘quv fanlarini birlashtirgan markaziy mavzu atrofida aylanadi va fanlararo bog‘lanadi. Masalan, “Okean” mavzusini olsak,

*baliqlarni sanashga qaratilgan **matematik** mashg‘ulotlar;*

*okean jonzotlariga qaratilgan **tabiat** darslari;*

*qog‘ozdan meduza yasash kabi **san’at/rasm** va **texnologiya** fanlarini o‘z ichiga olishi mumkin.*

Bunday integrativ o‘qitishga asoslangan mazkur yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun an’anaviy ta’lim usullariga qaraganda ancha qulay, samarali usul hisoblanadi, shu bilan birga, “rote memorization”, ya’ni “eslab qolish”ga asoslangan an’anaviy usullarga nisbatan bir qator afzalliklarni beradi, jumladan,

birlashtiruvchi mavzu atrofida o‘quvchilar faolligi va motivatsiyasi oshadi;

tilni alohida grammatik qoidalar asosida emas, bog‘lanishli kontekstda o‘rganadilar;

muayyan mavzu asosida turli o‘quv predmetlariaro bog‘liqlik hisobiga bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish va eslab qolish barobarida tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar;

matematika, tabiatshunoslik, o‘qish, rasm, texnologiya va jismoniy tarbiya kabi o‘quv predmetlarini markaziy mavzu doirasida tabiiy bog‘lanishlar orqali osonroq integratsiyalashga erishiladi;

mavzu bilan ishlashda turli o‘rganish uslublari va ehtiyojlarini qo‘llab quvvatlash uchun tabaqalashtirilgan shaklda o‘qitish imkonini beradi.

Xulosa shuki, mavzuga asoslangan yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qiziqtirgan mavzularni o‘rganishga, faol, hamkorlikda ishlashga, shuningdek, o‘zlari yoqtirgan mavzu bilan zavqlanishlariga yo‘l beradiki, bu chet tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarni har qanday ruhiy zo‘riqish, uyalish, qo‘rqish, tortinishdan saqlaydi va erkin gapirishga undaydi. Tabiiyki, mavzuni chuqurroq tushungan o‘quvchida muloqot qilish kompetensiyasi shakllana boradi.

O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining “Davlat ta’lim standartlari”da chet tili bo‘yicha A1 daraja uchun ta’lim mazmuni, chet tili bo‘yicha A1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar belgilangan, boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar chet tillarni bilishning umumyevropa tizimiga uyg‘unlikda olingan (2-jadvalga qarang). Chet tillarni bilishning boshlang‘ich ***A1 darajasi – “Kurtaklash bosqichi”*** (Breakthrough / Survival level /Beginner) yoki chet tilini egallashning ***boshlang‘ich darajasi*** deb nomlanadi. CEFR umume’tirof etilgan me’yor bo‘lib, u Yevropada zamonaviy tillarni o‘rganish va o‘rgatishda shaffoflik, uzviylik va izchillikni ta’minlash maqsadida 1989-1996-yillarda amalga oshirilgan

https://buxdu.uz

“Language Learning for European Citizenship” dasturi doirasida ishlab chiqilgan va Yevropa Kengashining 2001-yildagi qarori bilan Yevropa mamlakatlarida chet tili ta’lim tizimiga joriy qilinishi tavsiya etilgan. CEFR – Yevropa mamlakatlarida o‘quv reja, dustur va imtihon savollarini ishlab chiqish hamda darsliklar yaratish uchun tayanch yo‘riqnoma, unda til o‘rganuvchilar tildan foydalanish va samarali faoliyat olib borish uchun nimalarni o‘rganishlari, qanday bilim va malakalarni qay darajada egallashlari lozimligi bayon qilingan.

2-jadval

Davlat ta’lim standartlarida chet tili bo‘yicha
A1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar

Gapirish	
A1/1 (I sinf)	– salomlashish, xayrlashish, uzr so‘rash, ismi va yoshini ayta olish; – 1-20 gacha bo‘lgan sonlarni ayta olish; oila haqida gapira olish; – tanish mavzular bo‘yicha sodda savollar berish va ularga javob bera olish; – kundalik hayot bilan bog‘liq sodda gaplar ayta olish; – mavzuga oid o‘yinlarda so‘z va iboralarni nutqda qo‘llay olish.
A1/2 (II sinf)	– maktab, o‘quv fanlari, hafta kunlari haqida gapira olish; – tanish mavzular bo‘yicha savollar bera olish va ularga javob qaytara olish; – qisqa suhbat (dialog)larda ishtirok etish.
A1/2 (III sinf)	– yil fasllari, uy, xonasini tasvirlay olish; – tanish mavzular bo‘yicha dialog va monologlarda ishtirok etish, savollarga javob bera olish, iltimos bilan murojaat qila olish; – uzr so‘rash, kimnidir tug‘ilgan kuni bilan tabriklash kabi vaziyatlarda xushmuomalalik iboralarini qo‘llay olish.
